



**BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISH:
O'QUV DASTURI-O'QITUVCHI-BAHOLASH**

**KALDARO ILMIY AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
SPORT FAOLIYATI VA PEDAGOGIKA FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM KAFEDRASI**

**“BOSHLANG‘ICH TA‘LIM MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISH: O‘QUV DASTURI-O‘QITUVCHI-
BAHOLASH”**

**XALQARO ILMIV-AMALIV ANJUMAN
MATERIALLARI**

**«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: УЧЕБНАЯ ПРОГРАММА-
УЧИТЕЛЬ -ОЦЕНИВАНИЕ»**

**МАТЕРИАЛЫ
НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

**“IMPROVING PRIMARY EDUCATION CONTENT:
CURRICULUM-TEACHER-ASSESSMENT”**

**MATERIALS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE**

2023-yil 19-oktabr

BUXORO – 2023

6. Mustakimovna, Saidova Nodira. "MATN TAHLILIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING O'RNI." *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH* 2.18 (2022): 92-96

7. Турдиева Нигора Саидовна. (2023, June 20). КОНЦЕПЦИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ. INTERNATIONAL CONFERENCE "MODERN PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL EDUCATION SCIENCES", Rome, Italy

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY MEROSINI O'RGANISH JARAYONIDA TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Ashurova Marhabo Sayfulloyevna

Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Koshifiyning tarbiya borasida fikri davom ettirib, avvalo, ustoz-shogird munosabatlarga alohida to'xtalgan, uning fikricha shayxlik isboti daryo kabi saxovatli bo'lish, ya'ni, hech bir vaziyatda o'zgarmasdan mustahkam turish va hamma narsani fikr andisha bilan hal qilish kerakligini aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: odob, axloq, tarbiya, axloqiy tarbiya, fazilat, xulq, ustoz, pir, murshid.

Аннотация. Данная статья продолжает точку зрения Кошифи на образование, и в первую очередь он акцентирует внимание на отношениях учитель-ученик. По словам проповедника, доказательство шейхства в том, чтобы быть щедрым, как река, то есть твердо стоять в любой ситуации и решать все своим мнением.

Ключевые слова: манеры, нравы, образование, нравственное воспитание, добродетель, поведение, учитель, пир, мушрид.

Annotation. This article continues Koshifi's opinion on education, and first of all, he focuses on the teacher-student relationship. According to the preacher, the proof of sheikhdom is to be as generous as a river, that is, to stand firmly in any situation and to decide everything with an opinion.

Key words: manners, morals, education, moral education, virtue, behavior, teacher, pir, murshid.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonning yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi muammolar davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bugungi kun yoshlarini barkamol etib tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, talaba-yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma'naviy meros hamda nodir boylıklardan unumli foydalanish, ularning asarlarida qayd qilingan yoshlar tarbiyasiga oid g'oyalarni samarali qo'llash pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Koshifiy tarbiya borasida fikrini davom ettirar ekan avvalo, ustoz-shogird borasidagi munosabatlarga ham alohida to'xtalib "agar muridning odobi nechta, deb so'rasalar, sakkizta deb aytgil. "Avval shuki, u o'z ishiga puxta bo'lishi kerak, pok niyat bilan ish boshlashi darkor. Ikkinchidan, sobit e'tiqod bilan sulukni boshlasin. Uchinchidan, pining nazariga tushgach, o'z halovati va odatlaridan voz kechsin. To'rtinchidan, ko'rishi lozim bo'lmagan barcha narsalardan ko'z yumsin. Beshinchisi, eshitilishi noravo hisoblangan narsalardan quloqni berkitsin. Oltinchisi, qilinishi man etilganlardan qo'lini tortsin. Yettinchidan, o'z pining muxoliflari bilan muomlamunosabatda bo'lmasin" ¹.

Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi, deb so'rasalar, irodat ustiga, deb javob bergin. Agar irodat nimadir, deb so'rasalar, samo va toatdir, deb aytgin. Agar samo (eshitish) va toat nimadir, deb so'rasalar, ustoz nimaiki aytsa uni jon qulog'i bilan eshitish, chin ko'ngil bilan

¹ Ўша жой 317-б.

qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalda ado etishdir, deb ayt. Agar shogird uchun nima yaxshi, deb so'rasalar, pok e'tiqod deb ayt, chunki faqat e'tiqod kishini murodiga yetkazadi. Agar shogird nima orqali matlubi maqsadiga yetadi, deb so'rasalar, xizmati orqali, deb aytgin. Agar xizmatining binosi nimaga qurilgan, deb so'rasalar rohatni tark etish va zahmatni chekish asosiga, deb aytgin. Agar shogirdlikni ruknlari nechta, deb so'rasalar, to'rtta deb ayt. Birinchisi, mard bo'lib ishga kirishish, ya'ni futuvvat yo'lini mardona qabul qilish, zero, kirishmasdan qo'rqib turish, orqaga surish va yo'ldan qaytishdan ko'ra yomonroq. Ikkinchisi - sidqidildan xizmat qilish. Uchinchisi - ko'ngilni va tilni bir-biriga muvofiq tutish, ya'ni to'g'ri gapirib, to'g'ri amal qilish. To'rtinchisi - nasihatga quloq solish va ustozdan eshitganini yodda tutib, unga ama qilish.

Agar shogirdlikning odobi nechta, deb so'rasalar, sakkizta deb ayt. Avval shuki, qabulga kirganda yoki ustozni ko'rganda, birinchi bo'lib salom berish. Ikkinchi - ustozning oldida oz gapirish. Uchinchi - boshni oldinga egib turish. To'rtinchi - ko'zni har tomonga yugurtirmaslik. Beshinchisi - agar masala so'ramoqchi bo'lsa, oldin ustozdan ijozat olish. Oltinchisi - ustoz javob aytganda, e'tiroz bildirmslik. Yettinchisi - ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik. Sakkizinchisi - o'tirib-turishda hurmatni to'liq saqlash.

Koshifiy murid tushunchasini izohlab, agar "murid" so'zining ma'nosi nima deb so'rasalar, javob berib aytki, muridning lug'aviy ma'nosi istovchi, xohlovchi demak. Zero, botinda xohish bo'lmasa zohirda hech bir amal ko'zga tashlanmagay. Va tariqat tilida "murid" deb, nafsning barcha murod (istak)laridan qutulgan odamga aytadilar. Bunday odamning pirning xohishidan o'zga xoxishi bo'lmaydi. Agar muridlikning ruknlari nechta, deb so'rasalar, oltita deb aytgil, ya'ni farmonga itoat etmoq, rost so'zlamog, vafoli bo'lmoq, nasihatga quloq solmoq, dilozorlik qilmaslik va sirni saqlamoq. Agar muridlikning javhari (mag'zi) nima deb so'rasalar, bu - tariqat birodarlarining xursandligi, deb aytgil. Agar muridning sarmoyasi (boyligi) nima, deb so'rasalar, pok e'tiqod va ravshan ko'ngil, deb ayt. Agar muridlikning qonuni nima deb so'rasalar, o'ziga ravo ko'rgan narsalarni o'zgalarga ravo ko'rish va o'ziga ravo ko'rmagan narsani o'zgalarga ham ravo ko'rmaslik, deb javob bergil. Agar pir - muridlikning bezagi nimadir, deb so'rasalar muriddan xizmatu vafo, pirdan esa himmatu ato (lutf ehson), deb javob bergil¹. Tariqat yo'liga kirgan kishi pirga ehtiyojmanddir.

Inson ilm yo'lini tanladimi u albatta to'siqlarga uchraydi va bu yo'lda unga hamroh va hamdard bo'ladigan bir piru-ustozga ehtiyoj sezadi. Shu o'rinda bir narsani aytishni joiz deb bildik, agar kishi uch narsasini ilm yo'liga bag'ishlamasa u yuqmaydi: aqlini, vaqtini va boyligini.

Agar shayxlik ruknlari nechta deb so'rasalar, yettita deb aytgil. Birinchidan, komil ma'rifat egasi bo'lsin, ya'ni o'zini tanigan bo'lsin. Ikkinchidan, o'tkir farosatli, odamshunos kishi bo'lib, bir nigoh tashlash bilan muridning qobiliyatini ilg'ay olsin. Uchinchidan, yetuk ruhiy ma'naviy quvvati bo'lsin, toki murid (tariqat yo'lida adashsa), unga ma'naviy madad berib, mushkulini oson qilolsin, to'g'ri yo'lga solsin. To'rtinchidan, yetarli darajada odam bo'lsin, ya'ni hech narsaga muhtojligi bo'lmasin. Beshinchidan, ixlosi mustahkam bo'lib, riyo va tamani tark etsin, mol va mansab deb birovga sarg'aymasin, egilmasin. Oltinchidan, rostlik va beg'araz do'stlikni shior qilsin, haq so'zni har yerda, har qanday sharoitda ayta olsin, gapirganda ikkiyuzlamachilik qilmasin. Yettinchidan, qalbida shafqat nuri porlab tursin, murid manfaatini va umum manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ysin.

Biz bilamizki har bir narsada me'yor va o'lchov bo'ladi shunday ekan Voiz aytganidek shayxlikning ham o'z me'yorlari bo'ladi va bu buzilsa mezon o'zgaradi. Bu borada Koshifiy "agar shayxlik me'yori nima, deb so'rasalar, bu - uning qalbidan muridning chuqur joy olishi, murid murodining hosil bo'lishidir", deb javob bergil, deganlar. Ustozning zarurlari nimadan iborat degan savolga esa ular to'rtta deb ayt: birinchi - muridni barcha g'am - anduh zulmatdan xalos etish; ikkinchi - muridga ravo deb buyurilgan qoidalarga o'zi ham amal qilish, murid uchun man etilgan narsalarni o'zi ham tark etish; uchinchi - o'zini bamisoli cho'pon, muridlarni esa rama hisoblab, har qanday sharoitda ham murid himoyasidan bosh tortmaslik; to'rtinchi - muridning mol-mulkini o'z manfaati uchun ishlatmaslik va o'zlashtirmaslik deb javob berganlar.

¹ Уша жой 316-б.

Koshifiy shayxlik odobi borasida esa, hech kimga xiyonat ko'zi bilan qaramaslik va barchaga mehribon, rahmdil bo'lish kerakligini alohida ta'kidlaydi. Voiz fikricha shayxlik isboti daryo kabi saxovatli bo'lish, ya'ni, hech bir vaziyatda o'zgarmasdan mustahkam turish va hamma narsani fikr andisha bilan hal qilish kerakligini aytib o'tganlar.

Alloh hech bir narsani sababsiz yaratmagan. O'z joyida shunday takrorlanmas va tartib bilan yaratganki, insoniyatning aqli ojizi yetmaydigan darajada. Qur'oni Karimning "Nahl" surasi asalarilar deb nomlanib, 68-oyatida (ey Muhammad!) Rabbingiz asalarilarga vahiy (buyruq) qildi: "Tog'larga, daraxtlarga va (odamlar) quradigan narsalarga in quringiz. 69-oyat So'ngra turli mevalardan yeb, Parvardigoringiz (siz uchun) qulay qilib qo'ygan yo'llardan yuringiz!". Ularning qorinlaridan odamlar uchun shifo bo'lgan turli rangdagi sharbat (asal) chiqur"¹. Ana shu yerda Tangi yaratgan tartib va me'yorni yaqqol ko'rish mumkin. Bu borada Jaloliddin Rumiyning ham fikrlariga to'xtalamiz:

Haq ta'olo ilmi birlan bol ari,
Xona tiklaydi to'la holvalari.²

Tasavvur qilaylik, ona asalari o'lib qolsa butun oila tarqoq holatga keladi va parokandalikka yuz tutadi. Shuning uchun har ikki yilda ona boshi (ona asalari 5-8 yil umr ko'radi) almashtirilib turilmasa uning ish faoliyati samarali bo'lmaydi. "Anvori Suhayliy" asarining kirish bobida Humoyunfol podshoning ovga chiqqani va daraxt kovagida uya qo'ygan asalarilarni ko'rib ularni tartib intizom bilan ishlashlari, birgina boshliqqa so'zsiz itoat qilishlarini ko'rib hayron qoladi. Podsho dono vaziriga murojaat qilib, nega arilar mana shunday intizomga bo'ysunadilar odamlar esa bunaqa emas, deb so'raydi. Shunda vazir, arining hilqati bir xil unsurdan yaralgan va unda aql yo'q, u amallarini beixtiyor bajaradi. Inson tabiatida esa turli bir – biriga zid unsurlar borligi uchun ham ular doimo ziddiyatlar qurshovida yashaydi, deb javob beradi. Bundan vazir shunday xulosa chiqaradi: agar insonlar ham bir boshliqqa bo'ysunib itoat va tartib intizom bo'yicha ishlaganda edi, ularga podshohning ham keragi bo'lmas edi. Demak insonlarga bir shoh kerak ekan uning vazifasi ana shunday har xil tabiatli insonlarni murosaaga keltirib, adolat yo'li bilan ish ko'rish kerak. Koshifiy yana "Bilimsiz kuch adli yo'q shohdir, quvvati yo'q ilm esa adolatli, lekin lashkari yo'q shoh kabidir". deb uqtiradi.

Bilgilki, ulug'lar darveshlik barcha adabdir demishlar. Ya'ni har bir vaqtning, har bir holatning, har bir maqomning o'z odobi bordir. Bas, kimki odobni saqlasa, mardlar maqomiga yeta oladi. Hakim Abulmajd Sanoiy "Hadiqatul haqiqat" ("Haqiqat bog'chalari") asarida debdurkim, suhbat adab natijasidir va adab hurmat natijasi va hurmat savfat (sof, pokiza) natijasi va savfat ko'ngli natijasi va ko'ngil aql xazinasini va aql esa sir xazinasini, sir ma'rifat xazinasidir... Va debdurlarki, zohiriy adab botin adabining belgisidir. Har bir odam biror martabaga erishsa, odobidan erishadi.

Xulosa o'rnida ham Koshifiyning fikrlarini keltiramiz "odamzod o'z axloqini o'zgartirib boradi, ya'ni xulq – atvor yaxshilik tomon o'zgarishi kerak va bu so'zning haqiqati shundaki, odamlar maqbul va nomaqbul axloqiy sifatlar orasida doimiy kurash boradi, ya'ni har bir sifat o'ziga qarshi sifatni yo'q qilish payida bo'ladi. Shundagina peshtaxta (sandiq) ichidagi "qalb" (arab tilida qalb so'zi o'zgaruvchi, evrituvchi, degan ma'nolarni beradi) yaxshi xislatlardan nishona berib boradi.

Adabiyotlar

1. Абу Ҳомид Ғаззолий. Риёзатун нафс (Нафс тарбияси). -Тошкент. Мовороуннахр. 2006. -18 б.
2. Имом Аҳмад ибн Қудома Макдисий. Минҳожулқосидийн (саодат изловчиларга қўлланма). -Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт - мантбаа бирлашмаси. 2009.- 175 б.
3. Абу Ҳомид Ғаззолий. Риёзатун нафс (Нафс тарбияси). –Тошкент: "Мовороуннахр" 2006. -55б

¹ Қуръони Карим. Абдулазиз Мансур таржимаси. -Т.: "Ислом университети". 2001.128 оятдан иборат булган "Наҳл" сураси. 274-б

² Жалолиддин Румий. Ҳикматлари.Т.: "Шарқ", 2008. 229-бет

MUNDARIJA

O.X.Xamidov. KIRISH SOʻZI	3
O.X.Xamidov. BOSHLANGʻICH TAʼLIMGA XORIJIY TAJRIBALARINI QOʻLLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	4

1–SEKTOR: BOSHLANGʻICH TAʼLIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA XORIJIY TAJRIBALAR

Buse Seval Ilman, Doç.Dr.Nilay Dereobali. Erken Çocukluk Eğitiminde Aktif Öğrenme Yaklaşımı Üzerine Yapılan Araştırmaların Sistematik Derleme Çalışması.....	13
Erdal YÜKSEL, Doç.Dr.Nilay DEREOBALI. HİKAYE OKUMA ETKİNLİKLERİNİN OKULÖNCESİ DÖNEM ÇOCUKLARININ KELİME DAĞARCIĞINA ETKİSİNİN BEYİN FIRTINASI TEKNİĞİ ARACILIĞIYLA DEĞERLENDİRİLMESİ	25
Шерифетдинова Эльвина Рустемовна. ПРОБЛЕМЫ СОДЕРЖАНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	41
Qoʻldoshev Rustambek Avezmurodovich. BOSHLANGʻICH SINFLARDA BUGUNGI TAʼLIM JARAYONI	43
Бабаева Шоира Баймурадовна. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОПРЕДЕЛЕНИЯ И ДАЛЬНЕЙШЕЙ РАБОТЫ С ОДАРЁННЫМИ ДЕТЬМИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.....	46
Nigmatova Mavjuda Maxmudovna. MAKTABGACHA TAʼLIMDA XORIJIY TAJRIBA	49
Azimov Yunus Yusupovich. BOSHLANGʻICH TAʼLIM TOʻGʻRISIDA AYRIM MULOHAZALAR	52
Хусенова Азиза Шариповна. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ В ОПРЕДЕЛЕНИИ УРОВНЯ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ИССЛЕДОВАНИЯХ PIRLS	55
Kuchkarova Shakarjon Azimboy qizi. BOSHLANGʻICH TAʼLIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHNING ISTIQBOLLARI	59
Рахматуллина Шаура Мажитовна. ОБНОВЛЕННЫЙ ФГОС НОО ЕГО ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	68

2–SEKTOR: MILLIY OʻQUV DASTURINING AMALIYOTGA JORIY ETILISHI, YANGI AVLOD DARSLIKLARI.....

Saidova Muhabbat Shukrullayevna. YANGI AVLOD DARSLIKLARI TAʼLIM JARAYONINING MUHIM BOʻGʻINI SIFATIDA	71
SH.M.Farmonova. BOSHLANGʻICH SINFLARDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATILISHINING METODIK IMKONIYATLARI	72
Husenova Aziza Sharipovna. MILLIY OʻQUV DASTURINING DIDAKTIK ASOSLARI VA UNING TAʼLIM TARAQQIYOTIDAGI OʻRNI.....	78
X. Gulyamova. OLIY TAʼLIMDA TALABALARNI MAKTABDA LEKSIKOLOGIYANI OʻQITISHGA TAYYORLASH METODIKASI	80
Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi. YANGI AVLOD DARSLIKLARIDA ETNOPEDEGOGIKA NAMUNALARINI YORITILISHI BORASIDA.....	85
Jumayeva Habiba Gʻaforovna. BOSHLANGʻICH SINFLARDA OʻQUVCHILARI UCHUN YANGI AVLOD DARSLIKLARINING JORIY ETILISHI.....	88
Olloqova Oʻgʻiljon Mamanazarovna. YANGI AVLOD DARSLIKLARI - OʻQUVCHILARNING HAYOTIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSI	90
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi. BOSHLANGʻICH TAʼLIMDA MILLIY OʻQUV DASTURI VA YANGI AVLOD DARSLIKLARI AMALIYOTGA JORIY ETILISHNING DIDAKTIK ASOSLARI.....	93

3–SEKTOR: BOSHLANGʻICH SINFLARDA OʻQUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO TAJRIBALAR.....

Azimov Yunus Yusupovich, Qoʻldoshev Rustambek Avezmurodovich. OʻQUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH (PIRLS) TIZIMIGA TAYYORLASH.....	96
Jahongir Yuldoshev. STEAM – YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANGʻICH SINFLARDA OʻQUVCHILARINING INTELLEKTUAL SALOHİYATINI OSHIRISH	98

Kasimov F.F. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETILISHINING AHAMIYATI	244
Nasimova Nasiba Qurbon qizi. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'TKAZILADIGAN MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLAR ORQALI TARBIYALANUVCHILARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH, TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLASHTIRISH.....	248
Himoyeva Sarvarbegim. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH.....	251
Qodirova Saodat Abduraximovna. MAQOL VA MATAL JANRINING SHE'RIYATDAGI O'RNI ...	253
Saidova Nodira Mustakimovna. NAVOIY G'AZALLARINING MATNIY TAHLILI.....	256
Ashurova Marhabo Sayfulloyevna. HUSAYN VOIZ KOSHIFIY MEROSINI O'RGANISH JARAYONIDA TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	259
Saidova Nodira Mustakimovna. NAVOIY VA ILOHIYOTGA OID MULOHAZALAR.....	262
Ortiqova Gulshoda Komiljon qizi. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA USMON NOSIR HAYOTI VA IJODINI O'QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING O'RNI	264
Sidiqova Dilora Shavkatovna. MASOFAVIY O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	266
Садуллоева Махфуза Гайбуллоевна. СТРУКТУРА ДНЕВНИКА ДЛЯ ОРГАНИЗАЦИИ НЕПРЕРЫВНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ	268
Qurbonova Shoira Narzullayevna, Nabiyeva Maftuna. TA'LIM JARAYONIDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	271
Tog'ayeva Umida Shavqi qizi. "NUTQ O'STIRISH METODIKASI" MODULINI O'QITISHDA LOYIHALASH METODIDAN FOYDALANISH.....	273
Mavlonova Sevara, Sobirova Jasmina. BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	276
Saidova Zilola Gadoymurodovna. TA'LIM INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI	278
Asatova Barfiya Faxridinovna. Boshlang'ich sinflarda matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish.....	280
Tashmatova Shalola Ravshanbekovna. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY ZARURATI	282
Toshpulatova M.I. TA'LIM TIZIMIDA ILMIY BILIMLAR INTEGRATSIYASINING TURLARI ...	284
D.Mamanazarova, P.Ashurqulova, Z.Ne'matov. BO'LAJAK O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENTLIGINING TUZILMAVIY KOMPONENTI	288
D. Qarshibayev, M. Normatova, S.A. Burxonov. IXTISOSLASHGAN UMUMTA'LIM MAKTABI O'QITUVCHISINING INNOVATION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	290
U.Abdurodoeva, Z.Abdullayeva, R.Karimova, Z.Ne'matov. BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING QULAY VA SAMARALI USULLARI.....	292
Shaxnoza Nurmatova Ibroximovna, Farxodova Farangiz Jamshidovna, Xamrayeva Laylo Akmal qizi, Toshkentova Odina Qo'qon qizi, Usmonova Umida Nasriddin qizi, Yoqubjonova Laylo Asqarali qizi. MAMLAKATIMIZDA ILMIY TADQIQOTLARNI TASHKIL QILISH OMILLARI	296
Axmedov G'. OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH	298
S.Qodirova, Z.Ikromova, R.Esbosinov. BOSHLANG'ICH SINFLARDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING METODIK ASOSLARI	300
Камилова Гулмира Алимовна. ЭКОЛОГИК ТАРБИЯ ВА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ ПАРЕМИК ЖАНРЛАР ВОСИТАСИДА ШАКЛЛАНТИРИШ	303
Usmonqulova Sohiba Mirzohid qizi. O'QUVCHILARGA SO'Z TURKUMI HAQIDAGI BILIMNI O'RGATISHNING AMALIY VA NAZARIY ASOSLARI	305
5-SEKTOR: BOSHLANG'ICH TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLAR.....	308
Hakimova Nargiza Supxonovna. BOSHLANG'ICH SINIF TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJTIMOY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	308